



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **SIYOSIY BOSHQARUVNING AXLOQIY MOHIYATI**

**Shonazarov Jamshid Shuhratovich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsent (DSc)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada bugungi tobora globallashib borayotgan dunyoda siyosat va axloq muvozanati muammolari borgan sari taranglashib borayotgan bir sharoitda siyosiy manfaatlar to'qnashuvi axloqiy qadriyatlar muvozanatidan chiqib ketayotganligi, qolaversa, siyosiy boshqaruvning mohiyatini axloq tashkil etishiga qaratilgan muammolar yechimi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** axloq, siyosat, axloq va siyosat munosabati, siyosiy hokimiyat, boshqaruv, siyosiy boshqaruv, globallashuv, axloqiy qadriyatlar, siyosiy manfaatlar.

## **ПРАВСТВЕННАЯ СУЩНОСТЬ ПОЛИТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ**

**Шоназаров Жамшид Шухратович**

Шахрисабзский государственный педагогический институт, доцент (DSc)

### **Аннотация**

В данной статье анализируются проблемы баланса политики и морали в условиях современного глобализирующегося мира, где столкновение политических интересов выходит за рамки этических ценностей. Также рассматриваются пути решения проблем, направленных на то, что мораль составляет суть политического управления.

**Ключевые слова:** мораль, политика, взаимосвязь морали и политики, политическая власть, управление, политическое управление, глобализация, моральные ценности, политические интересы.

## **THE ETHICAL ESSENCE OF POLITICAL GOVERNANCE**

**Shonazarov Jamshid Shukhratovich**

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor (DSc)

### **Abstract**

This article analyzes the problems of the balance between politics and ethics in today's increasingly globalizing world, where the conflict of political interests is deviating from the balance of moral values. Furthermore, it examines solutions to issues focused on the fact that ethics constitutes the essence of political governance.

**Keywords:** ethics, politics, relationship between ethics and politics, political power, management, political governance, globalization, moral values, political interests.

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida siyosiy boshqaruvning samaradorligi faqat institutsional mexanizmlarga emas, balki uning axloqiy asoslariga ham bog'liq bo'lib bormoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruv tizimida axloqiy me'yorlarga rioya qilinishi jamiyatda ishonch, adolat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabatlar tarixan turli mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan. Arastu siyosatni insonni axloqiy kamolotga yetkazish vositasi sifatida ko'rsa, Nikolo Makiavelli siyosiy reallikda axloq har doim ham ustuvor emasligini ta'kidlaydi. Immanuel Kant esa siyosatni universal axloqiy qonunlarga bo'ysundirish kerakligini ilgari suradi.

Mazkur maqolaning asosiy muammosi siyosiy boshqaruv tizimida axloqiy tamoyillarning o'rni va ularning amaliy siyosat bilan muvozanatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida siyosiy manfaatlar to'qnashuvi axloqiy qadriyatlar muvozanatidan chiqib ketayotgan bir paytda ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda quyidagi nazariy-metodologik yondashuvlardan foydalanilgan:

Qiyosiy tahlil metodi — turli siyosiy-falsafiy maktablarning, ya'ni axloqiy maksimalizm, siyosiy realizm va muvozanat modeli qarashlari o'zaro taqqoslangan.

Tarixiy-genetik metod — siyosat va axloq munosabatlarining tarixiy evolyutsiyasi Arastu, Makiavelli, Kant, Rols, Veber va Xabermas asarlari orqali kuzatilgan.

Institutsional tahlil metodi — korrupsiya, shaffoflik va hisobdorlik masalalari tizimli-institutsional nuqtai nazardan o'rganilgan.

Normativ-analitik metod — siyosiy qarorlarning axloqiy mezonlar asosida baholanishi amalga oshirilgan.

Tadqiqotning nazariy asosini Kantning deontologik etikasi [1], Rolsning adolat nazariyasi [2, 3–53-bet], Veberning legitimlik tasnifi [10] va Xabermasning kommunikativ ratsionallik konsepsiyasi [16] tashkil etadi. Empirik ma'lumotlar manbai sifatida Jahon banki [6], OECD [14] va Freedom House [8] hisobotlaridan foydalanilgan.

**Natijalar.** Siyosiy boshqaruv tizimida adolat va tenglik prinsiplari davlatning barqarorligi va jamiyat ishonchini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Adolat har bir fuqaroning qonun oldida tengligi va ijtimoiy imkoniyatlarga adolatli ega bo'lishini anglatadi.

Kant ta'kidlab o'tganidek, adolat jamiyat barqarorligining asosiy tamoyili hisoblanadi [1]. Shu sababli davlat siyosatida qarorlar barcha ijtimoiy guruhlar manfaatini hisobga olgan holda qabul qilinishi lozim.

Jon Rolsning qarashlariga ko'ra, adolatli jamiyat shunday tuzilishi kerakki, u eng zaif qatlamlar manfaatini ham himoya qila olsin [2, 3–53-bet]. Uning "Adolat haqqoniyat sifatida" (Justice as Fairness) konsepsiyasi zamonaviy siyosiy va huquqiy falsafada inqilobiy g'oyalardan biri bo'lib, adolatli jamiyat tuzilishini asoslab bergan. Rolsning asosiy yondashuvlari quyidagilardan iborat:

- "Alohida mavqe" va "Jaholat pardasi": Rols jamiyat qoidalarini ishlab chiquvchilar o'zlarining jamiyatdagi o'rnini bilmaydigan faraziy holatni taklif etadi. Bunday holatda odamlar tavakkal qilmaslik uchun eng zaif qatlam himoyalangan tizimni tanlaydilar.

- Teng erkinlik tamoyili: hamma uchun asosiy huquq va erkinliklar teng bo'lishi kerak.

- Farq tamoyili: ijtimoiy-iqtisodiy notenglikka faqat u jamiyatning eng kam ta'minlangan a'zolariga maksimal foyda keltirgan taqdirdagina ruxsat beriladi.

- Imkoniyatlar tengligi: barcha lavozim va mavqelar hamma uchun ochiq bo'lishi va barchaga teng imkoniyatlar kafolatlanishi shart.

Bu yondashuv zamonaviy demokratik davlatlarda ijtimoiy himoya tizimlari, progressiv soliqqa tortish va imkoniyati cheklangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash orqali adolatli jamiyatni shakllantirishga asos bo'lgan [3].

Mas'uliyat va hisobdorlik davlat organlarining jamiyat oldidagi axloqiy va huquqiy javobgarligidir [6]. Bu tamoyillarning siyosiy boshqaruvdagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Axloqiy javobgarlik (mas'uliyat): davlat xizmatchilari o'z vakolatlarini shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki xalq farovonligi uchun ishlatishlari shart.
2. Huquqiy javobgarlik (hisobdorlik): davlat organlari o'z harakatlari yoki harakatsizligi uchun qonun oldida javob beradi.
3. Ochiqlik (shaffoflik): siyosiy qarorlar jamoatchilik uchun tushunarli va ochiq tarzda qabul qilinadi.
4. Nazorat qilinishi: mas'uliyat mexanizmi mavjud bo'lgandagina jamiyat — OAV, NNT va fuqarolar davlat organlari faoliyatini nazorat qila oladi.

Mas'uliyatsiz demokratik boshqaruv tizimini tasavvur qilib bo'lmaydi — bu davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi asosiy vositalardan biridir.

Shaffoflik davlat boshqaruvi jarayonlarining ochiq bo'lishini, halollik esa mansab vakolatlarini suiiste'mol qilmaslikni anglatadi. Hokimiyat ba'zan siyosiy manfaat uchun axloqiy

cheklovlarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin [7]. Bu hodisani tushuntiruvchi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

- “Maqsad vositani oqlaydi” (makiavellizm): siyosatda ko‘pincha natija usulning axloqiyligidan ko‘ra muhimroq deb hisoblanadi.
- Realpolitik: siyosatni ideallar yoki axloq emas, balki real kuch va milliy manfaatlar asosida yuritish.
- Istisno holatlari: xavfsizlik va inqiroz davrida hukumatlar axloqiy normalarni cheklashga harakat qiladi.
- Qo‘sh standartlar: hokimiyat o‘zi uchun qulay bo‘lganda axloq haqida gapirib, manfaatlariga zid kelganda axloqiy me‘yorlarni unutishi kuzatiladi [8].

Siyosiy boshqaruvda inson huquqlariga hurmat asosiy axloqiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Jon Lokkning fikriga ko‘ra, insonning tabiiy huquqlari — hayot, erkinlik va mulk davlat tashkil topishidan oldin ham mavjud bo‘lib, davlatning asosiy vazifasi ularni himoya qilishdan iborat [9]. Immanuel Kant esa insonni har doim maqsad sifatida qarash kerakligini ta’kidlab, uni vosita sifatida ishlatish axloqiy jihatdan noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Siyosiy tizim inson huquqlarini buzgan holda uzoq muddatli barqarorlikka erisha olmaydi.

Korrupsiya odatda axloqiy buzilish sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy siyosiy nazariyada unga nisbatan yanada murakkab qarashlar ham mavjud:

- Birinchi qarash: korrupsiya individual axloqsizlik natijasidir — shaxslarning tama va manfaatparastligi bilan bog‘liq. Yechim — axloqiy tarbiya va jazoni kuchaytirish.
- Ikkinchi qarash: korrupsiya institutsional tizimdagi muvozanatsizlik natijasidir — byurokратиyaning murakkabligi, shaffoflik yetishmasligi, hokimiyatning markazlashuvi bevosita korrupsion xulqni rag‘batlantiradi.

Robert Klitgaard korrupsiyani tahlil qilar ekan, uning paydo bo‘lishini “monopoliya + diskresiya – hisobdorlik” formulasi orqali izohlaydi [14]. Bu qarash korrupsiyani axloqiy emas, balki tizimli muammo sifatida ko‘radi.

**Muhokama.** Zamonaviy siyosiy boshqaruvda axloq masalasi oddiy individual fazilatlar yig‘indisi sifatida emas, balki institutsional tizimning funksional elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi davlat faoliyatida qarorlar shaxsiy axloqqa emas, balki institutlar tomonidan shakllantirilgan qoidalarga tayanadi.

Maks Veber davlatni qonuniy zo‘ravonlik monopoliyasiga ega tizim sifatida ta’riflar ekan, uning legitimligi “ishonch” va “qonuniylik” orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi [10]. Uning “Siyosat kasb sifatida” (Politik als Beruf) ma’ruzasida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, davlat muayyan hudud doirasida jismoniy zo‘ravonlikni qonuniy qo‘llash monopoliyasiga ega yagona tuzilmadir [11]. Veber legitimlikning uchta asosiy turini ajratgan:

- An’anaviy — “doim shunday bo‘lib kelgan” tamoyili (monarxiya).
- Xarizmatik — rahbarning shaxsiy fazilatlar va kuchiga bo‘lgan ishonch.
- Ratsional-huquqiy — qonunlar ustuvorligi va demokratik tartib-taomillarga asoslangan ishonch [12].

Zamonaviy davlatlarda aynan uchinchi tur — qonuniylik asosiy rol o‘ynaydi. Agar fuqarolar davlatning kuch ishlatishini “adolatli” va “qonuniy” deb bilsa, tizim barqaror bo‘ladi. Aks holda, “ishonch” yo‘qolgan joyda davlat inqirozga yuz tutadi.

Ammo amaliyotda ko‘p davlatlarda samaradorlik axloqiy tozalikdan ko‘ra ustuvor qo‘yiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy davlat boshqaruvi ikki qarama-qarshi tendensiya orasida harakat qiladi: normativ axloqiy siyosat (adolat, inson huquqlari) va pragmatik siyosat (samaradorlik, barqarorlik) [13]. Bu ikki yondashuv har doim ham uyg‘un emas — ba’zi holatlarda biri ikkinchisini inkor ham qilishi mumkin.

Immanuel Kant o‘zining axloqiy prinsiplarini qat’iylashtirgan holda siyosiy qarorlar axloqiy me‘yorlarga mos bo‘lishi shart [4], deb ta’kidlaydi. Mazkur prinsiplarga asosan Kantning deontologiyasini quyidagicha tushunish mumkin:

- siyosat axloqiy qonunlarga bo'ysunishi kerak;
- "to'g'ri ish" natijadan emas, qoidadan kelib chiqadi;
- hatto davlat ham axloqiy me'yorni buzishi mumkin emas.

Kantdan qariyb ikki asr oldin yashagan Makiavellining fikricha esa, hokimiyat ba'zan siyosiy manfaat uchun axloqiy cheklovlarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin [5]. Uning "Raison d'État" (davlat manfaatlari ustuvorligi) tamoyili quyidagicha xulosalanadi: agar maqsad davlatni saqlab qolish va tartib o'rnatish bo'lsa, bu yo'lda ishlatilgan vositalar tarix va xalq tomonidan oqlanadi.

Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabatni uchta asosiy yondashuv orqali tushuntirish mumkin:

1. Axloqiy maksimalizm siyosatni axloqdan mustaqil emas, balki unga to'liq tobe deb ko'radi. Ya'ni siyosiy qarorlar "samaralimi?" degan savoldan oldin "to'g'rimi?" degan savolga javob berishi kerak. Axloqiy maksimalizm yoshlarda mutaassib g'oyalar tuzog'iga ilinish xavfini tug'dirishi mumkin [17].
2. Siyosiy realizm (Realpolitik) siyosiy manfaat va davlat xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yadi. Arastu axloqni inson xulqini tartibga soluvchi fazilatlar tizimi sifatida tushuntiradi [18]. Jeyms Rels esa zamonaviy ta'rifda axloqni ijtimoiy me'yorlar va qoidalar tizimi sifatida bayon qiladi [19].
3. Muvozanat modeli adolat ustuvorligi, siyosiy maqsadlar va hokimiyat adolat, ochiqlik va inson qadrini ulug'lash tamoyillaridan kelib chiqishi kerakligini ta'kidlaydi [20].

Globalashuv jarayonlari siyosiy axloqni universal me'yorlar asosida birlashtirishga urinadi. Biroq amaliyotda bu jarayon jiddiy qarama-qarshiliklarga duch keladi [15]:

- Bir tomondan, inson huquqlari, demokratiya va shaffoflik kabi qadriyatlar universal standart sifatida qabul qilinmoqda.
- Boshqa tomondan esa turli madaniyatlar va siyosiy tizimlar bu qadriyatlarni turlicha talqin qiladi.

Bu holat "axloqiy universalizm" (axloq barcha uchun bir xil) va "madaniy relyativizm" (axloq madaniyatga bog'liq) o'rtasidagi bahsni kuchaytiradi. Yurgen Xabermasning kommunikativ ratsionallik konsepsiyasiga ko'ra, siyosiy qarorlar ochiq muloqot va ratsional muhokama orqali legitimlikka erishadi [16]. Biroq tanqidchilar bu ideal model amalda har doim ham ishlamasligini ta'kidlaydi.

**Xulosa.** Mavzu yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, siyosiy boshqaruvning axloqiy mohiyatini chuqurlashtirilgan tarzda tushunish uchun uni faqat hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi sifatida emas, balki jamiyatda adolat, mas'uliyat va insoniy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiluvchi axloqiy institut sifatida ko'rish kerak.

• Birinchidan, siyosiy boshqaruv axloq bilan uzviy bog'liq, chunki u inson xulq-atvorini tartibga soluvchi umumiy me'yorlar doirasida amal qiladi. Jeyms Rels ta'kidlaganidek, axloq — bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar tizimi bo'lib, aynan shu qoidalar siyosiy qarorlar qabul qilishda ham asos bo'ladi [19].

• Ikkinchidan, siyosiy boshqaruvning axloqiy mohiyati adolat tamoyilida namoyon bo'ladi. Jon Rolsning "adolat — jamiyatning asosiy fazilati" degan g'oyasi [2, 3–53-bet] muhim ahamiyat kasb etadi — davlat siyosati barcha fuqarolar uchun teng imkoniyat va adolatli sharoit yaratishga qaratilgan bo'lmasa, u axloqiy jihatdan o'z qiymatini yo'qotadi.

• Uchinchidan, siyosiy boshqaruv mas'uliyat va hisobdorlik (accountability) tamoyillariga tayanadi. Bu jihat Maks Veber ta'riflagan "mas'uliyat etikasi" tushunchasi [10] bilan uyg'un: siyosatchi o'z qarorlarining oqibatlarini uchun javob berishga tayyor bo'lishi shart.

• To'rtinchidan, siyosiy boshqaruv inson qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Inson huquqlari va erkinliklari ustuvor bo'lgan jamiyatda siyosiy tizim axloqiy jihatdan barqaror va legitim hisoblanadi.

Umuman aytganda, siyosiy boshqaruvning axloqiy mohiyati — bu hokimiyatni amalga

oʻshirish jarayonida adolat, insoniylik, masʼuliyat va qonun ustuvorligi kabi qadriyatlarni taʼminlashdir. Axloqdan uzilgan siyosat uzoq muddatli barqarorlikka erisha olmaydi; axloqiy tamoyillarga asoslangan siyosiy boshqaruv esa jamiyat taraqqiyoti va ishonchining asosiy kafolati hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Kant I. *Groundwork of the Metaphysics of Morals*. — Riga: Hartknoch, 1785.
2. Rawls J. *A Theory of Justice*. — Cambridge: Harvard University Press, 1971.
3. *Stanford Encyclopedia of Philosophy*. About the Project [Elektron manba]. — URL: <https://plato.stanford.edu/>
4. Machiavelli N. *The Prince* / trans. by H. C. Mansfield. — Chicago: University of Chicago Press, 1985.
5. Mansfield H. C. *Machiavelli's Virtue*. — Chicago: University of Chicago Press, 1985.
6. World Bank. *Public Sector Accountability and Governance*. — Washington, DC: World Bank Group, 2018.
7. Ibn Sino A. A. *Tib qonunlari*. 1-jild. — Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 1993.
8. Freedom House. *Freedom in the World 2025* [Elektron manba]. — URL: <https://freedomhouse.org>
9. (murojaat sanasi: 24.05.2024).
10. *Stanford Encyclopedia of Philosophy*. John Locke's Political Philosophy [Elektron manba]. — 2023. — URL: <https://plato.stanford.edu/>
11. Weber M. *Politics as a Vocation*. — Munich: Duncker & Humblot, 1919.
12. *Stanford Encyclopedia of Philosophy*. The Concept of the State [Elektron manba]. — 2023. — URL: <https://plato.stanford.edu/>
13. Norris P., Inglehart R. *Cultural Backlash: Trump, Brexit, and Authoritarian Populism*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
14. Fukuyama F. *Political Order and Political Decay*. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2014.
15. OECD. *Anti-Corruption and Integrity Outlook*. — Paris: OECD Publishing, 2024.
16. Held D. et al. *Global Transformations: Politics, Economics and Culture*. — Stanford: Stanford University Press, 1999.
17. Habermas J. *The Theory of Communicative Action*. Vol. 1. — Boston: Beacon Press, 1984.
18. UNICEF. *Adolescent Development and Participation*. — New York: UNICEF, 2021.
19. Aristotle. *Nicomachean Ethics* / trans. by C. D. C. Reeve. — Indianapolis: Hackett Publishing, 2014.
20. Rachels J. *The Elements of Moral Philosophy*. 8th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2015.
21. Gʻazzoliy A. H. *Ihyou ulumid-din (Din ilmlarini tiriltirish)*. — Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
22. Qodirova S. B. *Tibbiy etika va bioetika*. — Toshkent: Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2021.
23. Nurova Sh. *Abu Ali ibn Sinoning antropologik va axloqiy qarashlari*. — Buxoro: inLibrary, 2025.
24. Xayrullayev M. M. *Oʻrta Osiyoda maʼrifatparvarlik va insonparvarlik tarixi*. — Toshkent: Fan, 1991.